Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

YANGI O‘ZBEKISTON IJTIMOIY TARAQQIYOTIDA TINCHLIK VA BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASHDAGI KONSEPSIYALAR

Alijonov Baxtiyor Xoshimovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КОНЦЕПЦИИ ПОСТРОЕНИЯ МИРА И СТАБИЛЬНОСТИ

Алижанов Бахтиёр Хошимович
Ферганский государственный университет
независимый исследователь

NEW UZBEKISTAN IN SOCIAL DEVELOPMENT CONCEPTS IN BUILDING PEACE AND STABILITY

Alijanov Bakhtiyor Khoshimovich
Fergana State University
independent researcher

Annotatsiya: Mazkur maqolada xozirgi kunda jamiyatni ma’naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta’limni uzviylik va uzluksizligini ta’minlash hamda barkamol avlod tarbiyalash, yangi O‘zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan eng nozik masalalar yechimida, ayniqsa, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida pragmatik yondashib, tarixiy kelishuvlarga erishmoqda. Chunonchi, O‘bekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik, ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish yaqin istiqboldagi ustuvor vazifa sifatida mustahkamlangan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy tuzim, barqarorlik, ma’naviy-axloqiy,

madaniy rivojlanish, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, davlatchilik tarixi, ilm-ma’rifat, innovatsiya, aqliy mehnat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены духовно-нравственное и культурное развитие общества сегодня, духовные ценности, национальные идеалы, культурное наследие, история узбекского народа и государственности, а также обеспечение целостности и преемственности образования и воспитание грамотного поколения. , в решении наиболее острых вопросов со странами нового узбекского региона, особенно прагматичный подход к делимитации и демаркации государственных границ и достижение исторических договоренностей. Например, формирование в окрестностях Узбекистана среды безопасности, стабильности, гармоничного соседства определено в качестве приоритетной задачи на ближайшую перспективу.

Ключевые слова: общественное развитие, социальная структура, устойчивость, духовно-нравственное, культурное развитие, духовные ценности, национальная идея, культурное наследие, история государственности, наука и просвещение, инновации, интеллектуальный труд, наука, образование.

Abstract: In this article, the spiritual, moral and cultural development of society today, spiritual values, national ideals, cultural heritage, the history of the Uzbek people and statehood, as well as ensuring the integrity and continuity of education and raising a competent generation, in solving the most sensitive issues with the countries of the new Uzbekistan region, especially taking a pragmatic approach to the delimitation and demarcation of state borders and reaching historic agreements. For example, the formation of security, stability, harmonious neighborhood environment in the vicinity of Uzbekistan has been established as a priority task in the near future.

Key words: social development, social structure, stability, spiritual and moral, cultural development, spiritual values, national idea, cultural heritage, history of statehood, science and enlightenment, innovation, intellectual work, science, education.

odamlar manfaatiga xizmat qiladigon xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi

shakllantirildi. Eng muximi, biz ko‘p yillar davomida amal qilib kelayotgan “davlat-jamiyat- inson” tamoyilini o‘zgartirdik”[1].

Dunyo miqyosida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Ijtimoiy taraqqiyot jadal va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir halq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbolli maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Zamonaviy davlatlarning maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta’minlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizning taraqqiy etishi avvalambor, undagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik hamda bag‘rikenglik muhitining saqlanishiga shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishdan iborat. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan milliy siyosatda, milliy totuvlik va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, millatlar va etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish, demokratik, kuchli fuqarolik jamiyati qurish va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning falsafiy omillari katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Har bir millat, elat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o‘z manfaatlari, orzu-umidlari, maqsad-intilishlarini ko‘zlab harakat qiladi. Har bir elat va xalq o‘zining tarixiy ijtimoiy taraqqiyotida muayyan bir g‘oyalar va mafkuralarga tayangan holda rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishni ko‘zlagan davlatimizda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirib, umummanfaat va yagona maqsad yo‘lida harakatga chorlaydi. Bunday mafkurada ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi. Har qanday mafkura o‘z oldiga muayyan maqsadlarni qo‘yadi. Bu maqsadlar pirovard natijaga erishishning yo‘llari, vosita va usullarini belgilaydi.

“O‘zbekistonning jaxon xamjamiyati, eng avvolo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni hamkorlik, o‘zaro qo‘llab – quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirish”[2] bilan izohlanadi. Jamiyatni ma’naviy axloqiy va

madaniy rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta’limni uzviylik va uzluksizligini ta’minlash hamda barkamol avlod tarbiyalashdan iborat.

“Inson – doim yangi shakllarni yaratishi bilan ajralib turuvchi mavjudot. U hissiyotlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda qilishi uchun til vositasigaga yoki jamiyat tomonidan qabul qilingan taomillardan foydalaniladi. Biz bir – birimizga hissiyotlarimizni ma’lum bir shaklga solmasdan turib yetkaza olmaymiz.

Biz yaratuvchi shakllar doimo o‘zgarib turadi – bunga urflar, davr ruxining insonga xos o‘zgarishlari o‘z ta’sirini o‘tkazadi.. Doim shakllarni o‘zgartirib turamiz, ularni ajdodlardan meros tarzida qabul qilib olamiz va bu o‘zgarishlar bizning yashash tarzimizni tashkil qila boradi. Aslida esa o‘zgarmas narsalarda bizga hayotilikdan asar yo‘qdek tuyuladi va biz ularni o‘zgartiramiz. Ayniqsa, yoshlar buni yaqqol namoyon qiladi: jamiyatdagi shakllarning o‘zi uchun noqulayligini his qilib, ular o‘zlariga xos fe’l – atvorni turli – tuman niqoblar orqali namoyon etishga urunib ko‘rishadi. Turli – tuman bo‘lib o‘zgarib turuvchi shakllarni aynan hayotiy kuch boshqarib turadi”[1].

. “Butun insoniyat kabi jaxondagi har bir xalq va millat ham o‘zining taraqqiyoti tonggiga qarab intiladi. Tabiatning buyuk xodisasi bo‘lgan quyoshning har erta saharda olamga yuz ko‘rsatishi qanchalik go‘zal va jozibali bo‘lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir.

Ayni shu nuqtai – nazardan qaraganda, xalqlar tarixida o‘ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat daxosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faolyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi”[2]. O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lib, davr ruhiyati bilan bog‘liq huquqiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy asoslari borasidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritib, ijtimoiy va siyosiy hayotda barcha millat va elat vakillarining har tomonlama ishtiroki hamda muhitini shakllantirish va imkoniyatlarini differensial yondashuvlar hamda ijtimoiy mental xususiyatlaridagi dialektik aloqadorligi muhum xisoblanadi.

“Mamlakatimiz rivojlanishining yang davrida amlga oshiriladigon isloxotlarning ustuvor yo‘nalishlari quydagilardan iborat:

birinchi – erkin fuqorolik jamiyatini rivojlantirish va inson qadrini yuksaltirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

ikkinchi – mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotining eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

uchinchi – milliy iqtisodiyotni, uning o‘sish sur’atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish;

to‘rtinchi – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

beshinchi – ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

oltinchi – bugungi kunda insoniyat, xalqimiz duch kelayotgan umumbashariy muammolarga o‘z milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yechim topish;

yettinchi – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish;”[1].

O‘zbekiston hayotida so‘nggi yillarda olamshumul, keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, xalqaro hamjamiyat mamlakat iqtisodiyotining liberallashtirilishi, yaqin va qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro ishonchning mustahkamlanishi yoxud mintaqada barqaror taraqqiyot kafolati bo‘lgan Afg‘onistonni Markaziy Osiyo keng makoni iqtisodiy hayotiga faol integratsiyalashuvini ta’minlashdagi amaliy qadamlarni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bevosita bog‘liq ekanini qayd etmoqda. Bugun BMT, Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tuzilmalar minbarlaridan O‘zbekistonda inson huquqlari va ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash, majburiy mehnatga chek qo‘yish hamda ochiq siyosat yuritish bo‘yicha erishilayotgan natijalar haqli e’tirof etilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti rivojlanishi hamda tinchlik va barqarorligini mustaxkamlanish jarayonlari, albatta qo‘shni davlatlarni ham o‘ziga xos bo‘lgan sherikchiligi bor. Bu borada Markaziy Osiyoni osoyishtalik, barqaror taraqqiyot

hamda yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylantirish Yurtboshimiz tomonidan O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Chunonchi, O‘bekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik, ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish yaqin istiqboldagi ustuvor vazifa sifatida mustahkamlangan. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan Markaziy Osiyo — O‘zbekiston intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. Markaziy Osiyo mamlakatlari jug‘rofiy hamda geosiyosiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib qolmasdan, balki yagona madaniyat va sivilizatsiya makoni hamdir. Bu yerda isti-qomat qiluvchi xalqlarni umumiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, mushtarak an’ana va urf-odatlar, yagona tarix bog‘lab turadi.

O‘zbekiston bugun yaqin qo‘shnichilik, do‘stlik tamoyillariga tayangan holda faol va pragmatik siyosat olib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi tufayli mintaqa mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari jadal sur’atlarda bugungi kunda rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan eng nozik masalalar yechimida, ayniqsa, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasida pragmatik yondashib, tarixiy kelishuvlarga erishmoqda. Misol uchun, o‘zbek-qirg‘iz davlat chegarasining qariyb 85 foizi bo‘yicha shartnoma imzolandi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, tomonlar o‘z siyosiy irodasini, o‘zaro maqbul qarorlar qabul qilishga tayyorligini namoyon etgani bois uzoq muddat davomida birinchi marta ushbu g‘oyat nozik masala bo‘yicha oldinga siljish yuz berdi. Qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralardagi nazorat-o‘tkazish punktlari faoliyati qayta tiklanishi natijasida aholi emin-erkin harakatlanishi uchun yengilliklar yaratilayapti. Bu esa odamlarning qo‘shni davlatlardagi yaqinlari, qarindosh-urug‘lari bilan bordi-keldi aloqalari yo‘lga qo‘yilishiga, yana bir muhim jihati, o‘zaro savdo-sotiqning rivojlanishiga katta xizmat qilayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi zamonda barqaror taraqqiyot hamda xavfsizlik tushunchalarini ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qo‘shni mamlakatlar chegaradosh hududlari darajasida aloqalar kengayib borayotgani, xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan faol foydalanilayotgani ham mintaqa davlatlari munosabatlarini mazmunan boyitmoqda. Qonun chiqaruvchi organlar o‘rtasida

hamkorlikni kengaytirishga alohida urg‘u berilib, parlamentlararo do‘stlik guruhlari shakllantirilmoqda. Barqarorlik va xavfsizlik har bir davlat taraqqiyotining, iqtisodiyoti investitsiyaviy jozibadorligining hal qiluvchi omillari hisoblanadi”[1]..

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili

Millatning shakllanishida ma’naviy omillar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular millat-elatning abadiyligini ta’minlash imkoniyatidir. Bunday omillar millat taraqqiyoti uchun zaruriy muhum-shart hisoblanadi. Aslida ham millatning abadiyligini, uning barqarorligini ta’minlashning asosiy omili, uning ichki ma’naviy ruhiy salohiyatidir.

“Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, ayniqsa eng qiyin bo‘lgan o‘tmish davrida, davlatning uzoq muddatli istiqboliga mo‘jjallangan aniq siyosatini o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy davlatchilikni qaror toptirish, xalqaro munosabatlarni mustaxkamlash, isloh qilinayotgan iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini keng jalb etishning asosiy shartidir”[2].

. Millatlarning salohiyati, qobiliyati, matonati, tabdirkorligi va tinimsiz mehnat bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi moddiy va ma’naviy madaniyati, ularni boyitish va rivojlantirish yo‘llari va usullari yuzaga keltirilgan. Mutaxassislarning hisoblaricha, Yer yuzida uch minggga yaqin millat mavjud. Ular o‘z qatorida insoniyatning o‘rta hisobi bilan 96 foizini birlashtiradilar, faqatgina 4 foizi elatlar va qabilalardir. Har bir millatning soni bir necha o‘n mingdan bir necha yuz milliongacha boradi.

Mutaxassislar millatlarni soni jihatidan beshta guruhga bo‘ladilar:

1) Buyuk millatlar (har biri yuz milliondan ortiq millatlar: xitoylar, hindlar, indonezlar, amerikanlar, ruslar, yaponlar va boshqalar);

2) Katta millatlar (50 milliondan yuz milliongacha: inglizlar, fransuzlar, ispanlar, olmonlar, turklar, vyetnamlar, meksikanlar va boshqalar);

3) Yirik millatlar (har biri 10 milliondan 50 milliongacha: o‘zbeklar portugallar, qozoqlar, greklar, chexlar, argentinlar va boshqalar);

4) O‘rta miyona millatlar (har biri 1 milliondan 10 milliongacha: qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar, finlar, shvedlar, albanlar, boshqirdlar, latishlar, bolgarlar va boshqalar);

5) Kichik millatlar (har biri necha 10 mingdan 1 milliongacha: chechenlar, ingushlar, osetinlar, qalmoqlar, komilar, karellar, buryatlar, qoraqalpoqlar va boshqalar).

Shunday qilib, jahondagi eng yirik 27 millat Yer yuzi aholisining qariyib 75 foizini tashkil qiladi. Bu raqamlar millatlar naqadar xilma-xil bo‘lishini ko‘rsatadi.

Endi millatlararo munosabatlarga qaytsak, millatlarning o‘zaro munosabatlaridagi asosiy qoida - ularning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligidir. Buyuk va yirik millatlarning o‘z soni va imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga do‘q po‘pisa qilib, qurol kuchi bilan zabt etish va bo‘ysindirish niyatlari keyingi vaqtda Vyetnam, Jazoir, Afg‘oniston, Abxaziya, Chechenistan, Iroq misollarida asossizligi va amalga oshmasligi isbotlandi. Sobiq SSSRning mamlakatda eng ko‘p sonli millatga imtiyozlar tug‘dirib boshqa millatlarni mohiyatan kamsitish siyosati to‘la ravishda o‘zini fosh qildi va o‘n besh mustaqil davlatga bo‘linib ketishining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi.

Demak, endilikda jamiyat taraqqiyoti yo‘llarini qidirish va eng oqil yo‘llarini topish hammani qiziqtiradi va u barchaning vazifasidir. Shunday ekan, har bir masalaning hal etilish yo‘llari bo‘yicha o‘nlab takliflar tushishi tabiiydir. Maqsad esa aniq-masalani hal etishning eng oqil yo‘lini topish.

Siyosiy guruhlar, partiyalar va sinflar o‘rtasida murosasiz raqobat davri hozirgi vaqtda demokratiyaning yangi ma’nosini tushunmaydigan jamiyat va davlatlarda bo‘lishi mumkin. Mustaqil O‘zbekiston bunday holatlardan xoli. U demokratiya qonun qoidalari asosida rivojlanmoqda.

Mamlakatning ko‘p millatli xalqi – O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat, degan jipslashtiruvchi g‘oyani qabul qildi. Tanlab olingan islohotlar yo‘lini qo‘llab – quvvatladi”[1].

Milliy istiqlol g‘oyasi “agressiv millatchilik”, “millatparastlik”, “milliy biqiqlik”ni targ‘ib qilish g‘oyalari bilan murosa qila olmaydi, “buyuk davlatchilik shovinizmi”, “kosmopolitizm” g‘oyalariga nisbatan “millatparvarlik” “milliy bag‘rikenglik” “milliy hamjihatlik”, “millatlararo hamkorlik”, “do‘stlik”, “millatlararo totuvlik” g‘oyalarini qarshi qo‘yish talab etilmoqda.

“Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” konspsiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Millatlararo hamjihatlik deganda, millatlarninig madaniyati, urf-odati, diniy e’tiqodlaridan qat’i nazar, umummaqsad yo‘lida bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari, birgalikda faoliyatda bo‘lishlari, mushtarak maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorligini tushunish mumkin.

Xulosa. Yuqorida keltirib o‘tilgan mulohazalardan shuni ta’kidlash joizki milliy g‘oya, millatlararo totuvlik, millatlararo hamjixatlik jamiyatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Millatlararo totuvlik va hamjixatlik va umuminsoniy negizga asoslanishi tufayli yangi O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyoti, halqning, o‘zbekning ruhiyatini o‘zida to‘liq ifoda etadi.

“Millatlararo totuvlik” g‘oyasi turli millatlar yashayotgan ko‘p millatli O‘zbekiston uchun ayniqsa muhim bosh mezondir. U turli millatlarning maqsad va manfaatlarini o‘zida ifoda etish bilan birga ularni jipslashtirib turadi va shu ma’noda yangi O‘zbekiston oldida turgan erkin, demokratik jamiyat qurish maqsad-muddaolarini amalga oshirishda kata ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2022 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2023 y.

3. Robert Grin. Hokimyatning 48 qoidasi. –Toshkent: “Info Capital Books” 2022 y.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” 2022 y.

5. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O‘zbekiston” 1997 y.

6. https://religions.uz/news/detail?id=634